

SAMARALI MULOQOT QOIDA VA TAMOYILLARI

Sadikova Bahora

SAMDCHTI

Ispan italyan kafedrası kattao 'qituvchisi

Naimova Parvina

SAMDCHTI

Magistranti

Muloqot bu insonlar o'rtasida o'rnatiladigan, fikrlar o'zaro almashinadigan, ma'lumot beriladigan va ma'lumot qabul qilinadigan hodisadir. Muloqot bu insoniyat uchun muhim hodisa sanaladi. Zero, uning insoniyligi muloqoti jarayonida namoyon bo'ladi. Barcha shaxslar o'zaro muloqot qiladilar va biz uchun eng afzali va eng foydalisi bu samarali muloqotdir.

Muomula iborasi ijtimoiy hayotimizning deyarli barcha sohalarida insonning kundalik hayotida hamda insonlararo munosabatlarida bevosita va bilvosita namoyon bo'ladi. Masalan, iqtisodiyotda muomula- mehnat mahsulotlarini oldi sotti vositasida ayirboshlash sifatida, huquqshunoslikda muomula fuqoro yoki yuridik shaxsning o'z harakatlari bilan huquqqa ega bo'lishi va o'zi uchun majburiyat sifatida ishlatilishi.

Muomula madaniyati ham keng ma'noda insonning butun hayoti va faoliyati davomida tarbiyalanadigan jarayon bo'lib, u oilada, jamiyatda va jamoada shakllanadi. Muomula madaniyati insonning kuchi va aqliy qobiliyati, tafakkur salohiyati va dunyoqarashining muayyan darajasi sanaladi. Muomulaning madaniyat so'zi bilan bogliqligi ham, uning ma'naviy sohaga daxldorligidir.

Samarali muloqot deganda ma'lumotlarning aniqligi, tezligi, ikki tomonlama olib borilgan to'liq jarayon, ishonchlik, to'liqlilik, aniqlik, mazmun va mohiyatini ma'noga boyligini nazarda tutiladi. Samarali muloqot jarayonida shaxslar o'zlari sitagan maqsadga erishadilar. Ya'ni barcha narsa tushunarli va aniq tarzda sodir bo'ladi va ko'zlangan maqsad amalga oshiriladi.

Shaxslararo munosabat va muloqot bir necha asrlardan beri o'rganilib kelinmoqda va haligacha to'liq o'z ma'nosini topgani yo'q. Bu haqida B.F. parigin shunday deydi: “muloqot shunchalik ko'p qirraliki, bir muloqot jarayonida ko'p narsalarni o'z ichiga oladi”. Bu kabi jarayonlarni insonlar har kuni amalga oshiradilar. Lekin barcha qilingan aloqa ham samarali bo'lavermaydi. Biz samarali muloqotni amalga oshirishimiz uchun quyidagilarga amal qilmog'imiz lozim.

- Xushmuomulalik
- Diqqat va yana diqqat
- Hissiyotlarni boshqarish
- O'zaro tushunish
- Faol tinglash
- Ishonchlik
- Maqsadli jarayon
- Verbal va noverbal muloqot

Ushbu yuqorida keltirilgan jihatlar so‘zlovchi va tinglovchida mavjud bo‘lsa, ular hech qanday muammosiz samarali muloqot o‘rnata oladilar. Bundan tashqari kishilarda nutq madaniyati rivojlangan bo‘lmog‘i lozim. Xalqimizning “o‘zingga qarab kutarlar, so‘zingga qarab kuzatarlar” degan o‘giti bejizga emas. “til yarasi bitmas, tig‘ yarasi bitar” kabi maqollarimiz va naqlarimizda tilning nechog‘lik muhimligi keltirib o‘tilgan. shaxslar kim bo‘lishidan qat‘iy nazar muomula madaniyatiga rioya etmog‘i lozim. Chunki bu narsa muammolarni bartaraf etishga, shaxslararo yaxshi munosabat o‘rnatishga bevosita yordam beradi. Muomula madaniyatiga asosan quyidagi holatlarda namoyon bo‘ldi.

- Suhbatdoshning gapini bo‘lmaslik
- Etibor bilan tinglamoqlik
- Muloqot jarayonida etiborni faqat shu muloqotga qaratish
- Muloqot jarayonini ma‘ruzaga aylantirmaslik
- Suhbatdoshning nafsoniyatiga tegmaslik
- Muloqot jarayonida atrofga boqmaslik
- Ha yoki yo‘q, qisqa so‘zlarni ishlatmaslik

Biz samarali muloqotni faol tarqatib olib borishni xohlasak, ushbu yuqoridagi muomula madaniyati qoidalariga amal qilmog‘imiz lozim. Hozirda rivojlanib borayotgan jamiyatimizda sog‘lom avlodni, komil insonlarni voyaga yetkazish masalasiga katta e‘tibor qaratilmoqda. Komil insonning muhim sifatlaridan biri bu muloqot madaniyatidir. Yetarlicha shakllanmagan muloqot madaniyatisiz sog‘lom ijtimoiy munosabatlarni o‘rnatish mushkul.

Samarali muloqotda 5ta kalit mavjud.

- Ishonch
- Hurmat
- Tushunish
- Hamdardlik
- Qaror

Samarali muloqot bu raqsga tushish nazdida tasvirlaydigan bo‘lsak, sherigi bilan samarali suhbat bu xuddi raqsga birga o‘z o‘rnida olib ketishdek holat. Ishonch bu raqs maydonchasi, hurmat esa bu ritmini o‘rnatish va o‘zaro ta‘sir va uyg‘unlik raqsga ifodalaydi. Tushunish bu ohangni qalban his etish bo‘lsa, o‘zaro munosabatdagi iliqlik hamdardlikda namoyon bo‘ladi. Raqsga turli vaziyatdagi holatlar uyg‘unligi, bu muloqot jarayonidagi qarorlar ustuvorligidir. Ushbu 5 ta jihatni o‘zida mujassamlagan muloqot samarali bo‘lishi aniqdir. Samarali muloqot bizda oilaviy munosabatlarda, ishdagi faoliyatdagi, do‘stlarning suhbatida eng oliy o‘rinlarni egallaydi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mo‘tabar Abdusalomova Maxsudova “Muloqot psixologiyasi” Toshkent 2006. 3-bet.
2. Giblin Les “ishonchli muloqot tamoyillari. Tinglaydigan qilib gapiring, hurmat qozonish uchun harakat qiling. 2022. 4 bet.
3. Giorgio Versati “L’arte delle tattiche conversazionali” 2023.

4. B. Husanov, V.G’ulomov “Muomula madaniyati” Toshkent 2009 5 - bet